

# 14-YANVAR – VATAN HIMOYACHILARI KUNI



Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N: 2 (67323)  
2021-yil 11-yanvar

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN-2010-6092

## YURTNING SUYUK QALQONLARI

**Siz millatning ertasi, kelajagisiz. Siz ma'rifatli vatanparvar ajdodlarning vorislarisiz. Kitobni qanchalik yaxshi ko'rsangiz, ilm olishga intilsangiz, hunar egallasangiz, hayot maktabida hech qachon qoqilmaysiz.**

Umrim davomida qanaqa yutuqqa erishgan bo'lsam, ustozlarim, beminnat do'stim kitoblar tufaylidir. Bobolarim, ota-onam o'g'itlari, ustozlarim saboqlari, tinimsiz o'qib, o'rganganim sabab davlatimizning nufuzli mukofotlariga sazovor bo'ldim.

Bolaligimizda «Tong yulduzi» gazetasiga sinf bo'yicha, ya'ni har bir o'quvchi bittadan obuna bo'lib o'qiganmiz. Qaysidir yutuqlarimda, albatta, gazetxonlikning ham hissasi katta. Sababi, har sondagi maqolalarni, she'rlarni otam rahmatli erinmasdan so'rab olardi.

Siz ham O'zbekiston yoshlarining sevimli nashri «Tong yulduzi» bilan hamnafas bo'ling. Haqiqiy vatanparvar yigit-qizlar bo'lib ulg'aying...



**Ro'zimurod JO'RAYEV,**  
Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on  
tumanidagi «Vatanparvar» tashkiloti rahbari,  
tuman deputati, Respublika ichki ishlar  
faxriylar Kengashi a'zosi, podpolkovnik.



## MAKTABGA TASHAKKURNOMA KELDI

**Hurmatli 28-umumta'lim maktabining  
aziz va mo'tabar jamoasi! Sizlar ta'lim  
berayotgan maktabda tahsil olgan  
Ulug'bek Amirov Zayniddin o'g'li hozirgi  
kunda O'zbekiston Respublikasi Qurolli**

**Kuchlari safida Buxoro viloyati, Buxoro shahrida joylashgan harbiy qismda Vatan  
oldidagi o'z yigitlik burchini a'lo darajada ado etib kelmoqda.**

Oddiy askar Ulug'bek Amirov Zayniddin o'g'li xizmat davomida safdoshlariga o'rnak ko'rsatib, jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik fanlaridan yaxshi natijalarga erishmoqda.

Qurolli Kuchlarimiz safiga shunday mard, jasur va vatanparvar farzand tarbiyalab berganingiz uchun Buxoro garnizoni boshlig'i sifatida Sizlarga o'z tashakkurimni bildiraman.

**Buxoro garnizoni boshlig'i  
D. ILHOMOV**

(Davomi 5-betda)



O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligida bayram munosabati bilan kitobxonlik uchrashuvi bo'lib o'tdi. Tadbirda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoir Axtamqulining «Qarog'imda gullaydi Vatan» hamda «So'z chamani» nomli she'riy to'plamlari taqdimoti o'tkazildi. Dil istaklarini nazmiy tarzda ifoda etgan shoir she'rlari askarlar qalbidan chuqur joy oldi.



## IBRATLI HAYOT

**Aziz va mehribon bolajonlarim!**

Siz yana bir yoshga ulg'aydingiz. Shu muborak yil boshida sizlarga o'zimning o'ntagina ibratli o'gitlarimni ilinmoqchiman. O'qing, qay biri sizga ma'qul bo'lsa, o'shanga amal qiling, kam bo'lmasiz:

1. Tog'ning tepasiga chiqishni odat qiling. U yerda toza havo bor. Toza havo umringizga umr qo'shadi, unutmang!
2. Har bir narsaning foydasi va ziyoni bor. Foydasini oling.
3. Vaqtdan unumli foydalaning. U doim harakatda, Sizni u kutib turmaydi.
4. Diydingiz qattiq bo'lmasin, yakkalanib qolasiz, mehribon bo'ling, do'st ko'payadi.
5. Asalari chaqsa xursand bo'ling, foydasi bor, qovoq-ridan esa hushyor bo'ling!
6. Bilimingiz darajasida gapiring, uyalib qolmaysiz.
7. Haq bo'lsangiz ham «Aytganim aytgan, deganim degan» demang, haq bo'lganingizni oliy hakam – vaqt ko'rsatadi.
8. Aql va odob bozorda sotilmaydi. U oilada va maktabda shakllanadi. Ammo mehnatda chiniqadi.
9. Gapirmoqchi bo'lsangiz, «Attorning qutisida yo'q» gaplardan gapiringki, tinglovchilaringiz mamnun bo'lsin!
10. Sog'lom bo'lay desangiz, ozodalikka e'tibor qarating.

**Sizni sevib ardoqlovchi 80 yoshli buvangiz  
To'lqin MUHIDDIN,  
yozuvchi, dramaturg**

**Shahrimizda qad rostlagan muhtasham «Vatanparvarlar bog'i» Vatan himoyachilariga bo'lgan yuksak e'tibordir. Prezidentimiz bog'ning ochilish marosimida qatnashgandilar. Bu maskanga tashrif buyurgan har bir bola qalbida «Kelajakda Vatan himoyachisi bo'laman», degan yuksak orzu paydo bo'ladi. Bog'ga birinchi bor kelganimda, menda ham tengsiz taassurotlar uyg'ongan.**

## YURT BOG'I



Bayram kuni «Vatanparvarlar bog'i»ga oilamiz bilan boramiz. U yerda turli harbiy tanklar, samolyotlar va harbiy anjomlar bor. «Vatanparvarlar bog'i»dagi muzeyda Ikkinchi jahon urushiga oid eksponatlar, ordenlar va janglarni eslatuvchi noyob buyumlar bor.

Yurtimizning tinch va osoyishta bo'lishiga kimlar sababchi, deb so'rasalar, baralla, «Harbiylar», deya javob beraman. Negaki, ular chegarada kecha-yu kunduz sergak turishadi. Ushbu sharaflil va mas'uliyatli kasbni ado etishda ularga kuch-quvvat va ulkan zafarlar tilab qolaman.

**Mirfayzbek ABDULLAYEV,  
Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahridagi  
4-umumta'lim maktabining  
6-sinf o'quvchisi**

**Nizomiddin BOTIROV,  
Toshkent viloyati, Oqqo'rg'on tumanidagi  
8-umumta'lim maktabi direktori,  
«Do'stlik» ordeni sohibi**

**Mamlakatimizda hukumatimiz tomonidan ta'limni rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. 2020-yilda ta'lim-tarbiyani va ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan Prezidentimizning qator Qaror va Farmonlari e'lon qilindi. Bu hujjatlarda asosan, ta'lim mazmuni va sifatini oshirish, o'quvchilarni 7-sinfdan qiziqishiga qarab biror kasbga yo'naltirish va bu qiziqishlarini takomillashtirib borishga, o'quvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga, eng asosiysi, Milliy o'quv dasturini yaratishga qaratilgan.**



mavjud. Ma'lumki, yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat, sadoqat tuyg'ularini shakllantirish, ularni ma'naviy, axloqiy jihatdan komil inson qilib tarbiyalashda kitobning o'ri beqiyos. O'quvchilarni orasida mutolaa madaniyatini shakllantirish, ularni kitobxonlikka jalb qilish, bilim va salohiyatini oshirish maqsadida maktabimizda muntazam ravishda «Yosh kitobxon», «Kitobxon o'quvchi», «Kitobxon maktab» kabi ko'rik-tanlovlar, sinflararo «Zakovat» intellektual o'yinlari o'tkazib kelinadi.

Aziz bolajonlar, aminmanki, Sizlar tahsil olayotgan ta'lim

# YANGI O'ZBEKISTON MAKTAB OSTONASIDAN BOSHLANADI

Tuman markazida joylashgan maktabimiz yurtimizda yaratilayotgan shart-sharoitlardan unumli foydalanib, yosh avlodga ta'lim-tarbiya berib kelayotgan qutlug' maskanlardan biri sanaladi. Ta'lim-tarbiya jarayonini bugungi kun talabi darajasida

ilg'or pedtexnologiyalar asosida olib borayotgan o'qituvchi-murabbiylarimiz ta'lim sifatini yanada yaxshilash maqsadida tinimsiz izlanishdalar.

Maktabimizda Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus va yoshlarga oid davlat

siyosatining ijrosi yuzasidan turli tadbirlar, musobaqalar, intellektual o'yinlar va kasb-hunarga yo'naltirilgan to'garaklar tashkil etilgan. Kutubxonamiz uchun alohida katta va yorug' xona ajratilgan bo'lib, zarur anjomlar bilan jihozlangan. 1400 dan ortiq badiiy adabiyotlar

maskanlarida ham shunday shart-sharoitlar muhayyo. Keng imkoniyatlardan unumli foydalanib, xalqimizga munosib bilimli, salohiyatli, barkamol avlod bo'lib yetishishingizga ishonaman. Zero, Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi.



Vatanparvarlik hissi insonga bolalik davridan singdiriladi. Kattalarni hurmat qilish, kichiklarga izzatda bo'lish va ona Vatanni sevish, uni ardoqlash kabi xislatlar har birimizda mujassam. «Kim Vatanga sodiq bo'lsa, mendurman o'sha» deb nomlangan vatanparvarlik doirasida bilim maskanimizda harbiylar ishtirokida turli tadbirlar o'tkazilmoqda.

## KIM VATANGA SODIQ BO'LSA, MENDURMAN O'SHA...

Maktabning harbiy chaqiriqqacha tayyorlash rahbari, zaxiradagi katta leytenant H.B. Yodgorov boshchiligidagi harbiy qism vakillari bilan davra suhbatlari, turli ko'rik-tanlovlari, videoroliklar namoyishi o'tkazilmoqda. Ayniqsa, harbiy akalarining chiqish-

laridan zavqlangan bolajonlarning qalbida «Men ham katta bo'lsam, harbiy bo'laman», degan niyat uyg'onayotgan bo'lsa, ajabmas. Mazkur maktabning 6-«D» sinf o'quvchisi Sardor Abduraimov ham ushbu oylikka doir videorolik tayyorlab, yig'ilganlar-

ga namoyish etdi. Uning vatanparvarlikni tarannum etuvchi ushbu ko'rgazmasi barchaga birdek ma'qul bo'ldi.

**Zilola SIROJIDDINOVA,**  
Toshkent viloyati, Angren shahridagi 41-umumta'lim maktabining ingliz tili fani o'qituvchisi



Nashrimizda e'lon qilingan 14-yanvar «VATAN HIMOYACHILARI KUNI» tanlovi ishtirokchilarining ijod namunalari

### VATANIM

Go'zaldirsan, betakror,  
Buyukdirsan ulug'vor.  
Yer yuzida o'rning bor,  
Vatanim O'zbekiston.

Elatlarning tilida,  
Dong'i dostonim.  
Quchog'ingda ulg'aydim,  
Aziz O'zbekistonim!

**Gulsanam MAXMASOLIYEVA,**  
Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi 62-umumta'lim maktabi o'quvchisi

### HAVAS

Yurtga posbon bo'lishar,  
Yurtimiz posbonlari.  
Sizning qo'lingizdadir,  
Kelajak davronlari.

Yurtimiz posbonlari,  
Sizga havas qilishar.  
Kelajakda ular ham,  
Yurtga posbon bo'lishar.

**Ayubxon HAMIDULLAYEV,**  
Toshkent shahar, Sergeli tumanidagi 284-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi

### MEHRIDARYO

Ona bag'ridek qalbi,  
Tafti go'yoki quyosh.  
Mehridaryo Vatanim,  
Biz senga egamiz bosh.

Ulg'aytirding bag'ringda,  
Ayamay berding mehr.  
Xizimatingdamiz doim,  
Farzandingmiz biz axir.

Imkoniyatlar mujassam,  
Har bir go'shangdir shinam.  
Yurakdan mehr ila,  
Madh etamiz biz har dam.

Vatanim, bugun senga,  
Tashakkur aytgum dildan.  
Mustaqil bu elimda,  
Barkamol avlod men ham.

**Mohichehra NE'MATILLAYEVA,**  
Navoiy shahri, 16-AFCHO'IM 9-«B» sinf o'quvchisi

### ASKAR AKAM

Vatanimni qo'riqlar,  
Jasur, pahlavon akam.  
Tinchligimiz asraydi,  
Askar akam, mard akam.

El dardida yashaydi,  
Shaxdam qadam tashlaydi.  
Sodiqlikka boshlaydi,  
Askar akam, mard akam.

Sira orom bilmaydi,  
Faqat bizni o'ylaydi.  
Yovga shafqat qilmaydi,  
Askar akam, mard akam.

**Pokiza AHMADJONOVA,**  
Namangan viloyati, Uychi tumanidagi 36-umumta'lim maktabining 4-sinf o'quvchisi

## HA YOT SABOG'INI BERGAN VOQEA

Insonning umrida shunday vaziyatlar bo'ladiki, o'sha holat tufayli uning hayot yo'llari o'zga o'zanlarga burilib ketadi. Bundan bir necha yillar avval mening hayotimda ham shunday voqea yuz bergan.

B o s h - lang'ich sinflarda o'qib y u r g a n chog'larim edi. Tanaffus paytida dugo-

darslik va daftarlarim har tarafga sochilib ketdi. Men ularni tezgina yig'ishtirib oldim. Ustoz menga shunday qaradilarki, uyatdan yerga kirib ketguday bo'ldim.

Darsdan keyin barcha sinfdoshlarim ketishgandan so'ng, ustozning yonlariga borib, kechirim so'radim. Boshqa bunday holat takrorlanmasligiga so'z berdim. Ertasi kuni kitobim ustiga yangi muqova o'rab, uyga berilgan mavzuni sharillatib o'qib keldim. Javob berish uchun qancha qo'l ko'tarsam ham ustoz menga aybimni yuvish uchun imkon bermadilar, mendan uy vazifasini so'ramadilar...

Bu noxush voqea mening murg'ak qalbimda o'chmas iz qoldirdi. O'sha vaqtda bir kun kelib o'zim ham o'qituvchi bo'lishim xayolimga ham kelmagan edi. Hozir mahallamizdagi maktabda qariyb 30

yildan buyon boshlang'ich sinf o'quvchilari-

lariga saboq berib kelyapman. Har gal o'quvchilarimga kitob haqida gapirganimda, shu voqea beixtiyor yodimga tushadi. O'quvchilarimni kitobni sevishga, uni ardoqlashga o'rgataman.

**Zebo HAKIMOVA,**  
poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 274-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi



## Bir kuni darsda...

nalarimdan ko'rib kitobimning varaqlarini gulga o'xshatib buklab chiqqanman. Bu mashg'ulotga azbaroyi berilib ketganimdan tanaffus tugaganini ham sezmay qolibman. Ustoz darsga kirib keldilar. Ko'proq buklab yuborgan ekanman chog'i, buklangan varaqlarni o'z holiga keltirishga ulgurmay qoldim, partadoshim yordamlashib yubordi. Darslikni papkamga solib, joyimga o'tirdim. Bu holni kuzatib turgan ustoz yonimga kelib, bir og'iz ham gapirmasdan papkamni olib, jahl bilan stolimga qo'yidilar, papkamdagi barcha

# KICHIK HUDUDLARDA KATTA O'ZGARISH

2020-yil 30-sentyabr mamlakatimiz xalq ta'limi sohasi tarixida yana bir muhim sana bo'lib qoldi. Sababi, shu kuni Prezidentimiz «O'qituvchi va murabbiylar kuni» munosabati bilan ta'lim sohasi xodimlariga, ziyolilarga murojaat qildi, jonli muloqotda bo'ldi.

Shu kuni ulkan xayrli maqsadlariga tamal toshi qo'yildi. Ya'ni, bugun biz izchil ijrosini ta'minlashga kirishgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni, «Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori qabul qilindi.

Ushbu muhim hujjatlar ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, o'qituvchilar, metodistlar hamda sinf rahbarlarini moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash kabi yo'nalishlarda amalga oshiriladi-

gan dolzarb vazifalarning dasturiy amali bo'ldi.

Bir so'z bilan aytganda, amalga oshirilayotgan islohotlar, ta'lim sifati oshirish bo'yicha ishlarning ko'lami keng. Biroq, ayrim holatlarda ularning barchasi eng quyi tizimgacha yetib bormayotgan bo'lsa, ba'zan ularning mohiyatini to'liq anglab yetadigan mutaxassislar yetishmayapti. Shuning uchun xalq ta'limi sohasidagi muammolarni bartaraf etishda ham, islohotlarni hayotga tatbiq etishda ham mana shunday shart-sharoitlarni, mavjud imkoniyatlarni, albatta, inobatga olishimiz shart. Doim odatlanib qolganimizdek, faqatgina yaxshi



Zebiniso SHODIYEVA,  
Samarqand viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i

o'qituvchi, yaxshi o'quvchi e'tibor markazimizda bo'lmasdan, o'z ustida ishlamaydigan, izlanmaydigan o'qituvchi, o'zlashtirishni xohlamaydigan yoki imkoniyatlari cheklangan o'quvchi bizning birinchi navbatdagi muammomiz bo'lishi zarur. Amaliy yordamimiz, ko'magimizga muhtoj bo'lib turgan pedagog-xodimlar, o'quvchilar bilan manzilli ishlashimiz kerak. Binobarin, katta o'zgarishlarni ki-

chik hududlardan boshlab, ko'proq natijaga erishish va amaliyotga tatbiq etish mumkin. Ana shunda sa'y-harakatlarimiz zoye ketmaydi, ta'lim sifati va samaradorligi ortib boradi.

O'sib kelayotgan o'g'il-qizlarimizning chuqur bilim olib, barcha sohada muvaffaqiyatlarga erishib, ona Vatanimiz bayrog'ini baland ko'tarishiga, yuzimizni yorug' qilishiga ishonaman!

## Aziz o'quvchilar!

Chiroyli yozuvni o'rganish boshlang'ich ta'limda savodxonlikning poydevori hisoblanadi. Bugungi mashg'ulotimizda chiroyli yozuv va husnixat haqida gaplashamiz.

## KIMNING XATI CHIROYLI?



O'quvchilar, husnixat malakasini shakllantirish uchun birinchi navbatda harflarning shaklini to'g'ri tasavvur etishga, bir xil qiyalikda yozishga, so'zlarda harflarni to'g'ri joylashtirishga e'tibor bering. Daftari chiziqdagi birin-ketin almashuvi davomida harflarning qiyaligini va ular orasidagi masofani to'g'ri

saqlash, kichik va bosh harflarning nisbatini to'g'ri chamalab yozish muhimdir. Avvalo, yozuvda bosh harfning balandligi 8 mm, kichik harfning balandligi 4 mm ekanligini unutmang. Daftarning chap tomonida hoshiya chizilmaganligi

sababli, 3 mm joy qoldirib yozish shart. Yozuv daftari bilan ko'z oraligi esa 30 sm bo'lishi talab etiladi.

Husnixatga erishish uchun quyidagi qoidalarga amal qiling:

1. Barmaq va qo'l muskul-larining harakatini o'stiruvchi gimnastika mashqlarini bajar-ing.

2. Partada gavdangizni tik tuting, ruchkani to'g'ri ushlang, daftarni to'g'ri qo'yish qoidasini eslang.

3. Ko'z bilan daftari orasida-gi masofani to'g'ri saqlang.

Yuqorida keltirgan tavsiyalarimga amal qilsangiz, chiroyli yozuv – husnixat sohibiga aylanishingiz tayin. Qani, solishtiramiz, kimning xati chiroyli?!

Gulbahor BARNOXO'JAYEVA,  
Samarqand viloyati, Narpay tuman XTB  
boshlang'ich ta'lim metodisti

## BILIMLILAR BELLASHGANDA...

Samarqandda umumta'lim fanlari bo'yicha Respublika fan olimpiadasining viloyat bosqichi bo'lib o'tdi.

Unda fan olimpiadasining ikkinchi bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritgan 1393 nafar o'quvchilar qatnashdi.

Fan olimpiadalarining Respublika bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritgan o'quvchilarga ixtisoslik fani bo'yicha davlat oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida maksimal ball olish huquqini beruvchi va uch yil davomida amal qiluvchi sertifikat taqdim qilinadi. Ularni tayyorlagan o'qituvchilar esa bazaviy hisoblash miqdorining 50 barobaridan 30 barobarigacha bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlanadi.



**SAMARQAND VILOYATI, KATTAQO'RG'ON TUMAN DEPUTATLARI TOMONIDAN AJOYIB LOYIHA YO'LGA QO'YILDI**

# DEPUTATLAR TASHABBUSI

**Bugungi kunda yoshlar o'rtasida yangi iste'dodlarni kashf etish, ijodkor o'quvchilarning ijodiy ishlarini respublika matbuoti, xususan, mamlakatimizda bolalarning sevimli nashri «Tong yulduzi» gazetasida muntazam yoritilishini keng yo'lga qo'yish maqsadida Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on tuman deputatlari tomonidan ajoyib loyiha yo'lga qo'yildi. Yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida «Maktablarga «Tong yulduzi» bilan!» tashabbusi ila chiqqan deputatlar o'quvchilarda Vatanga hurmat ruhini oshirish, xalqparvarlik, kitobsevarlik, tasviriy san'at, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy ongini yuksaltirish va bu jarayonlarni amalga oshirish uchun maktablarga borishdi.**

## MAKTABGA TASHAKKURNOMA KELDI

(Boshi 1-betda)

Yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish maqsadida hududlarda mahalla qoshida kutubxonalar tashkil etish, «Mahalla – oila – ta'lim muassasasi» konsepsiyasi asosida hududdagi tadbirkorlar, nuroniy keksalar, faxriy ustozlar hamda sobiq maktab bitiruvchilarini chorlab, «Kitobxonlar klubi»ni uyushtirish, kitob marafonlarini tashkillashtirishda homiylikni yo'lga qo'yishni rejalashtirgan.

Maktablarga «Tong yulduzi» gazetasi bilan kirib borgan tashabbuskor deputatlarimiz orasida Ro'zimurod Jo'rayev, Ulug'bek Ernazarov, Dilshod Musayev, Xudoyberdi Ro'ziyev, Shahro'z Rashidov, Nigora Shodiyeva, Farida Ergasheva, Jur'at Jumayev, Rustam G'ulomov, Sarvar Boboyev, Shodiyor Amirov hamda Muhiddin Teshayevlarni ko'rdik. Ularning har biri maktab o'quvchilariga 10 tadan yillik gazeta kvitansiyasi taqdim etdilar.

Deputatlarning amalga oshirayotgan xayrli ishlarini qo'llab-quvvatlagan Kattaqo'rg'on tuman hokimi Jamshid Nasriddinov: «Tashabbus – bebaho qobiliyat. Ijrosi esa haqiqiy natija!» deya ularni ruhlantirdi.

Yosh avlod ta'lim va tarbiyasiga bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar eta olsak, o'z burchimizni haqqoniy ado etgan bo'lamiz.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining 27 yillik bayrami bizning maktabda ham ko'tarinki ruhda nishonlanmoqda. O'quvchilarimiz Vatan, vatanparvarlik, mehr-oqibat haqida she'rilar, jonli ijroda qo'shiqlar aytishdi. Quvonarlisi, Buxoro garnizoni boshlig'i D. Ilhomovdan kelgan tashakkurnoma maktabimiz ustozlarini juda quvontirdi. O'quvchimiz Ulug'bek Amirov garnizonda o'tkazilgan musobaqada 1-o'rinni olganligi nafaqat ota-onasi, jamoamiz, o'quvchilarimiz uchun ham chinakam bayram bo'ldi.

Askar o'quvchimiz Ulug'bek yozgan maktubni o'quvchilarga o'qib berdim. «Assalomu alaykum, ustoz! Salomatmisiz? Bugun men sizlar bergan bilimingiz va tarbiyangiz evaziga O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari armiyasi artilleriyalari o'rtasida o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi chempionatida 1-o'rinni oldim. Bu oilamga va ustozlarimga berilgan birinchi sovg'am. Sizdan iltimos, mana shu I darajali medalimni o'z qo'llaringiz bilan onajonimga taqdim qilishingizni so'rayman. Sizday ustozimga va barcha muallimlarimga kattadan-katta rahmatlar aytaman!

**Oddiy askar Ulug'bek AMIROV».**

To'g'risi, onalik mehrim tovlanib, ustozlik muhabbati ila ko'ngil uyimga bir olam quvonch keltirgan o'quvchimni g'oyibona bag'ringa bosdim.

Yutuqlaring bardavom bo'lsin, o'g'lonim. Senga havas qilgan yuzlab ukalaring nazdida chinakam komil, vatanparvar, elsevar bilimdonga aylanganing rost bo'lsin!

**Aziza BOYMURADOVA,**

**Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on tumanidagi 28-umumta'lim maktabi direktori**



**Deputat Sardor Mardonov 98-umumta'lim maktabi o'quvchilari bilan...**



**Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tuman Kengashi deputati Ro'zimurod Bozorovich 32-, 36- va 54-umumta'lim maktablariga kitoblar va «Tong yulduzi» gazetasi kvitansiyalarini topshirish jarayonidan lavhalar.**

Farrux sinfdosh do'sti Ergashning xuddi kinolardagi chavandozlarday qizg'ish, yollari qop-qora, baquvvat otini jilovlab, adirlarda yugurtirishga havas qilardi.

Ergash har kuni darsdan so'ng mol boqqani dalaga chiqsa, otini minib borardi.



Ulug'bek MUSTAFO,  
bolalar yozuvchisi

Bir kuni Farrux maktabda tanafus payti Ergash bilan suhbatlashar ekan:

– Men ham otga rosa qiziqaman-u, ammo minishni bilmayman-da, – dedi afsuslanib.

– Qo'rqmasang, o'rganib ketasan, – dedi Ergash bamaylixotir. – Agar ot minishni xohlasang, tushdan so'ng men bilan dalaga yur, – dedi.

Ot minishga bo'lgan qiziqishi sabab Farrux maktabdan qaytgach, oyisi Inobat opa tayyorlab qo'ygan tushlikni ham naridan-beri yedi.

– Hoy, qayoqqa?! Bundoq qorningni to'yg'azib olsang bo'lmaydimi?! – deya ortidan oyisining hay-haylaganiga qaramay, ko'chaga otildi. Oxiri Ergashni qidirib topdi.

Birgalashib qishloqdan ancha uzoqdagi fermerning dalasiga bordilar. Ergash odatdagiday otga minib olgan, Farrux esa velosipedda uning ortidan borardi.

Bahor tabiatni yal-yal yashnatib yuborgandi. Quyosh yangi o'sgan maysalarga, ular orasida sap-sariq ochilib turgan gullar-u qizg'aldoqlarni o'z orombaxsh nurlari bilan siyloyotgandek edi. Kapalag-u ninachilar o'ynoqlab uchishardi.

Ergashlarning dalasi kenggina edi. Past sayhonlik. Unga tutash kichik jarlik orasida keng anhor oqib o'tardi.

Farrux velosipedini fermerning dala shiyponida qoldirib, o'zi do'stiga ergashdi. Ergash mollarini o'tloqda qoziqladi. So'ng, Farruxga:

– Mening ortimdan yur, – deya uni yastanib yotgan yam-yashil dala sari boshladi.

– Nima qilmoqchisan? – hayron bo'lib so'radi Farrux.

– Axir ot minishni istayman deganding-ku. Senga o'rgatmoqchiman, – dedi Ergash. O'zi esa otdan tushib, uning jilovini tutdi. So'ng, do'stiga qaradi:

– Qo'rqmaysanmi? Min otga. – Bilmadim... – Farrux birdan sarosimaga tushdi.

– Qo'rqma, – unga dalda berdi Ergash. So'ng, qizg'ish rangdagi otning qansharidan silab. – Tek... tek... jonivor, – deya uning bezovtalanishini bostirganday bo'ldi.

doimiy hamroh topilayotganidan xursand bo'lib.

Farruxning Ergashga qo'shilib dalaga kelib yurgan kunlaridan to'rtinchi kuni edi.

Endi Farrux otdan qo'rqmasdan o'r'nashadigan bo'ldi. Bundan ko'ngli to'lgan Ergash:

– Qani, o'zing ham bir choptirib ko'r-chi, – deya bir vaqt otning jilovini qo'yib yubordi.

Yalanglik bo'ylab ot sekin yo'rg'alay boshladi. Farrux ham uni mustaqil boshqara-

Farrux azbaroyi uyalganidan lat yeb shishib ketgan barmog'i og'rig'idan azoblansa-da, do'stiga bildirmaslikka harakat qildi.

Uyida dadasi Nurmat aka o'g'lining barmog'i bog'langanini ko'rib: – Qayerda jarohatlanding? – deb so'radi.


Ochig'ini aytishga tili bormagan Farrux:

– Futbol o'ynayotgandim. Yiqilib tushdim, – deb qo'ya qoldi.

Kunlar o'tib, Farruxning lat yegan barmog'i tuzalib ketdi.

## CHAVANDOZ O'G'IL

(Hikoya)



Farrux uzangiga oyoq tirab bir amallab otning ustiga o'tirib oldi. Ot undan begonasiradimi, qaysarlanib, uzun quloqlari dikinglab, silkinib qo'yd. Bu holatdan cho'chigan Farrux do'stiga iltijoli ohangda:

– Ot jilovini qo'yvorma, iltimos, – deb yolvordi. U otda biroz aylangandan so'ng, pastga tushib jonivorning u yoq-bu yog'ini siladi. O'ziga o'rgatmoqchiday:

– Oq qashqa, Oq qashqa, – deb erkalagan bo'ldi. Chunki qizg'ish rangdagi otning peshonasidan to og'zigacha oq hoshiyasi o'ziga juda yarashardi.

– Yana minasanmi? – so'radi Ergash.

– Ertaga... – dedi Farrux.

– Ertaga bo'lsa ertaga-da, – dedi Ergash keng dalada unga

yotganidan xursand edi. Har zamonda:

– Qalay, zo'rmi, a? – deya Ergashga kulib qarardi, otga esa o'zicha buyruq berardi.

– Chux-x, jonivor!

Bir payt ot silkinib tez yugurgan edi, jilovini bo'sh ushlaganigami, o'zini eplay olmay qolgan Farrux pastga munkib ketdi. Chap tomoni bilan chimga yiqildi.

– Ux qo'lim... qo'lim! – deya og'riq azobidan nafasi ichiga tushib ingradi.

Xavotirlangan Ergash shu zahotiyoq uning yoniga yugurib keldi:

– Nima bo'ldi? Yomon yiqilmadingmi?! – u shoshib do'stining u yoq-bu yog'ini ushlab ko'rdi. – Xayriyat, qo'l-oyog'ing but ekan.

Endi Ergashning oti ham unga o'rgangan. U ham jonivorga bemalol minib, hatto yelday choptiradigan darajaga yetib oldi. Bir gal Farrux do'stining o'rniga otni minib, uning mollarini daladan haydab keldi.

Kechki payt qishloq ko'chasidagi bu holatga ishdan qaytayotgan Nurmat akaning ham ko'zi tushgan ekan.

...Oqshom payti Farrux ota-onasi bilan ovqatlanib o'tirishgandi. To'satdan Nurmat aka televizordan diqqatini olib:

– Boya ko'zlarimga ishonmagandim, ot minib kelayotgan senmiding?! – deb so'radi. Farrux biroz cho'chish bilan «ha» degan ma'noda bosh silkidi. Sarosimaga qo'shilgan onasi:

– Voy-y, hali ot minib yuribsanmi? U yoq-bu yog'ing sinib qolsa keyin men nima qilaman? – dedi. Lahzalik sukutdan so'ng Nurmat aka xotinini tinchlantirar ekan:

– Urushma buni, onasi. Ko'rdim, otni bemalol minyapti. Bilasanmi, nima? Shu tobda o'g'lingni bir paytlar qishloqda chavandozligi bilan dong taratgan otamga o'xshatayman. Bolam bobosiga tortibdi-da, – dedi mamnun holatda.

Otasining mamnunligini ko'rib, Farrux ham dadillandi.

– Ota, siz ham yoshligingizda ot minganmisiz?

– Minganman, – dedi Nurmat aka biroz sukutdan so'ng so'zini davom ettirdi. – Ammo bir gal yiqilib qo'lim singandan so'ng, otga yaqinlashishga yuragim dov bermay qolgan. Keyin otam ham meni otga yaqinlashtirmagan. Bolam, otga mehrli bo'lganingdan juda xursandman. Xohlasang, shu yozda senga ot olib beraman.

– Nimalar deyapsiz, dadasi?! – dedi Inobat opa.

– Bilib gapiryapman, onasi, bilib... O'g'limizni o'z holiga qo'y. Haqiqiy yigit bo'lib ulg'aysin! – dedi Nurmat aka.

Shu tobda Farrux otasi ot olib berishini o'ylar ekan, qalbida shirin bir orziqish uyg'ondi...

# MENING BOLALIKDAN SUYGAN YULDUZIM



**Islom ASILBEKOV,**  
O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy  
uyushmasi mutaxassisi

Boshlang'ich sinfda o'qib yurgan kezarim pochta amaki maktabimizga bir nechta bolalar nashrlarini olib kelardi. «Gulxan», «G'uncha», «Tong yulduzi» kabi gazeta-jurnallarni tengdoshlarimiz bilan talashib o'qir edik. Ba'zan yangi sonining yetib kelishi kechikib ketsa, pochta holi-joniga qo'ymay, ularni so'roqqa tutardik.

Esimda, 4-sinfda o'qib yurgan kezarim «Tong yulduzi» gazetasiga xat yozganman. O'lis qishloq bag'rida gazetaning har bir sonini intiqlik bilan kutuvchi, o'zi tengqur bolalarning ijodidan ilhomlanish uning ko'nglida ham nimadir qoralashga turtki bo'lgan bo'lsa, ajab emas.

«Maktabim – faxrim» sarlavhasi ostidagi kichik xabarim gazetada bosilganida, o'zimda yo'q xursand edim. Shundan so'ng, «Tong yulduzi» mening yaqin hamrohimga aylandi. She'rlar, hikoyalar, maktabimizda o'tkazilayotgan tadbirlardan lavhalar yozib turdim...

Harakatlarim besamar ketmadi, deb o'ylayman. Bugungi kamtaro-

na erishgan yutuqlarimda, albatta, gazetaning o'rni alohida. Aynan bolalar yo'nalishida yozgan hikoyalarimiz o'tgan yili Hindistonda nashr etilgan «Zamonaviy o'zbek hikoyalari» (Contemporary Uzbek Short Stories) xalqaro nasr antologiyasidan o'rin oldi. Shuningdek, ushbu mamlakatda yosh ijodkorlar uchun adabiyot yo'nalishida berib boriladigan «SAHITYA SHREE» nomidagi nufuzli adabiy mukofot va uning maxsus sertifikatiga loyiq deb topildim.

Joriy yilda esa Jahon iste'dodlari uyushmasi (Qozog'iston) tomonidan o'tkazilgan «O'lis bolalikka sayohat» xalqaro-online tanlovining 1-mavsumida «Eng yaxshi hikoya» nominatsiyasi

g'olibi hamda maxsus diplom bilan taqdirlandim hamda 2020-yil 18-avgustda Qozog'iston Respublikasida faoliyat olib borayotgan Jahon iste'dodlari uyushmasi a'zoligiga qabul qilindim.

O'tgan yil sarhisobini qilar ekanmiz, badiiy ijod sohasidagi yutuqlarimiz zamirida bolalar nashrlari, ayniqsa, «Tong yulduzi»ning o'rni borligi meni quvontiradi. Bugun kitob javonimga uning har soni peshma-pesh joylanib borar ekan, har gal uning mutolaasiga chog'langanimda, o'lis bolalik xotiralaringa qaytgandek bo'laveraman.

Qalaming o'tkir, aytar so'zing bardavom, bag'ringda esa yuzlab nihollar bo'y cho'zaversin!!!

## USTOZ, SIZDA ZO'R CHIQIBDI... BU SO'Z MENI IZLANISHGA UNDAYDI

Men 2014-yilda «Barkamol avlod» bolalar maktabida o'z mehnat faoliyatimni boshlaganman. Hozirda «Tasviriy san'at» to'garagida rassomlikka qiziquvchi bolalarga tasviriy san'at sirlarini, tabiat va ranglar uyg'unligini o'rgataman. O'zim ham xayolot olamimdagi tasavvurlarimni oq qog'ozda aks ettirishni juda yaxshi ko'raman. O'quvchilarim, ustoz, sizda zo'r chiqibdi, deyishadi. Men esa:

«Sizlar hali yoshsizlar, tasviriy san'at sirlarini qunt bilan egallasangiz, hali

mendan ham zo'r chizadigan bo'lib ketasizlar», deya ularni rag'batlantira-

vosidagi tanlovda 1-o'rinni egallab, respublika miqyosida «Eng tirishqoq ijodkor» nominatsiyasi g'olibi bo'ldi. Badiiy ijodiyot uyushmasi a'zosi Rahim Hakimov, «Ustoz – shogird» an'anasi davomchisi Fadeyev Sergey Petrovich kabi ustoz-

taqdirlashganida juda sevindim. Kasbim bilan faxrlandim. «Barkamol avlod» maktabi rahbari Mavjuda opa Jamolovanning «Izlansang, muvaffaqiyatlar ortingdan seni izlab keladi», degan gaplarining nechog'li to'g'ri ekanligiga yana bir bor amin bo'ldim.

**Malika XO'JAYEVA,**  
Buxoro viloyati,  
«Barkamol avlod»  
bolalar maktabi tasviriy  
san'at to'garagi rahbari



O'quvchilarim uzoq-yaqindan har bir mashg'ulotimizga katta qiziqish va ishtiyoq bilan kelishadi.

man. Maktabimizda bo'lib o'tadigan barcha tanlovlarda o'quvchilarim faol qatnashib, faxrli o'rinlarni egallashadi. 42-umumta'lim maktabidan Nozimjon Isomov, 32-umumta'lim maktabidan Amirbek Bahodirov, 2-umumta'lim maktabidan Munavvara Abdurasulova, 21-umumta'lim maktabidan Diyora Baxtiyorova, Nasiba Bafayeva kabi shogirdlarimdan umidim katta. Nasiba ikki marta viloyat miq-

larimdan behad minnatdorman. Joriy yilda «Tong yulduzi» gazetasida e'lon qilingan «Boyligni bolalikdan asrang!» respublika tanlovida ham o'quvchim Amirbek rasm yo'nalishida g'olib bo'ldi. Tahririyat xodimlari maktabimizga kelib, tanlovda g'olib bo'lgan shogirdim Amirbekni va meni



## BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

Avvalo, quyida ta'riflanib, raqamlarda yashiringan kalit so'zlarni toping.

1. Harbiylarning sodiqlik haqidagi rasmiy va'dasi – 19, 1, 8, 1, 7, 14, 3, 11.
2. Davlat ramzi – 7, 1, 11, 10, 4, 14, 1.
3. Vatan oldidagi burchini sadoqat bilan ado etganligi uchun taqdim etiladigan O'zbekiston Respublikasining oliy nishoni – 12, 1, 8, 3, 2, 1, 15.
4. Snaryad tayyorlashda ishlatiladigan modda – 18, 3, 2, 3, 26.
5. Harbiy mashq, sinovlar o'tkazish maydoni – 18, 3, 6, 4, 9, 3, 5.
6. Ado etilishi majburiy bo'lgan vazifa – 16, 13, 2, 21.
7. Fazodagi nishonlarni urib tushiruvchi texnika – 24, 23, 5, 4, 15.
8. Jangda qozonilgan muvaffaqiyat, zafar – 20, 1, 6, 1, 16, 1.
9. Maqoldan: «11, 22, 8, 15, 6, 4, 17 sinovda chiniqadi».
10. Harbiylarning muntazam qatori – 8, 1, 25.

Endi kalit so'zlari asosida shakldagi raqamlarda ifodalangan kriptogrammani hal etish bilan shoir Iskandar Rahmonning «Assalom, armiyam, ulug' ostonam» nomli she'ridan to'rt misrani bilib oling.

## «VATAN POSBONLARI MADHI» KRIPTOGRAMMASI

				*	*	1	2	7	4	14	1	7	*	*						
				*	*	*	*	9	!	*	*	*	*	*	*	19	*	*	*	*
		*	3	5	4	5	*	4	5	3	7	8	*	4	2	,	1	*	*	
		*	16	*	*	*	9	5	*	*	*	3	!	*	*	*	11	*	*	
*	*	8	*	1	8	,	*	*	*	*	*	9	5	3	*	4	*	*	*	
*	18	3	*	2	*	*	*	*	*	*	*	*	*	5	*	2	,	*	*	
2	*	*	1	10									3	10	*	15	3			
13	*	4	11	*									*	1	12	*	20			
8	*	5	*	*									*	*	*	*	6			
1	*	9	*	*									*	*	13	*	1			
12	*	*	*	*									*	*	5	*	2			
*	*	23	*	*									*	*	3	*	*			
1	*	2	13	*									*	-	12	*	7			
11	2	*	2	*									2	3	*	17	1			
*	1	6	*	11	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	10	*	5	3	*	
*	*	25	*	1	26	6	*	*	*	*	*	*	*	,	8	1	*	4	*	*
*	1	*	*	*	8	4	*	*	*	*	22	6	*	*	*	5	*			
*	8	*	2	3	*	24	,	*	,	21	*	1	11	,	9	*				
*	*	*	*	16	*	*	15	*	2	*	14	2	*	*	*	*				
				*	*	4	17	3	*	1	6	3	*	*						

**Va'dasi chin, ahdi – ahd,  
Vatansevar askarning.  
Vaxtasi-yu posti tinch,  
Voqif hushyor lashkarning!**

**Iskandar RAHMON**

Tuzuvchi:  
Foziljon ORIPOV



Pazanda qizgal!

Bunday usulda tayyorlangan qatlama xamirdan har xil pishiriqlar tayyorlash mumkin. Bugun esa xamir ichiga jem solingan shirinliklar tayyorlashni tavsiya qilamiz.

## QATLAMALI PISHIRIQLAR



**Kerakli masalliqar:** Xamiriga: 600 gramm un, 300 gramm qatlama xamirga mo'ljallangan margarin, 1,5 choyqoshiq tuz, 1 choyqoshiq limon kislotasi, keragicha qaynoq suv. Asosiga: 200 gramm quyuq jem, surtish uchun tuxum sarig'i.

**Tayyorlanishi:** 1 choyqoshiq limon kislotasi ustidan 2 choyqoshiq issiq suv quyamiz va erigunga qadar yaxshilab aralashtirib olamiz. Suvga tuz va eritilgan limon kislotasi hamda un solib, xamir qoramiz, ustini yopib, 30 daqiqaga tindirib qo'yamiz. So'ng xamirni 5 mm qalinlikda yoyib, margarin suramiz. Xamirni xuddi «konvert»dek yoyib, taxlaymiz va yelim xaltaga solib, 30 daqiqa sovutgichga olib qo'yamiz.

So'ngra, stolga un sepib, 0,7 – 1 sm qalinlikda yoyamiz. Bunda xamirning uzunligi kengligidan 3 karra uzunroq bo'lishi kerak. Keyin tayyor xamirni teng ikkiga bo'lamiz. Har bir xamirni 3 mm qalinlikda yoyamiz va ulardan 10x10 sm kattalikdagi to'rtburchaklar yasab olamiz. Bir bo'lagini olamiz, diagonaliga ustma-ust qo'yamiz, 1 sm pastrog'idan ikkala tomonidan kesamiz. Kvadratni ochamiz, kesilgan burchaklariga ozroq suvdan surtib, bir-birini ustini yopamiz. Pergament qog'oz to'shalgan gaz pechi patnisiga olib qo'yamiz, 1 choyqoshiqdan ichiga jem qo'yib chiqamiz. Chetlariga esa tuxum sarig'idan surtamiz.

210°Cda qizdirilgan gaz pechida 8 daqiqa pishiramiz, so'ng haroratni 180°C ga tushirib, yana 12 daqiqa davomida pishiramiz. Mana, pishiriqlarimiz ham tayyor! Endi ularni likopchalarga solib, dasturxonga tortamiz.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

BIZNING TELEGRAM RAQAMIMIZ: (94) 645-90-70

**Tong yulduzi**

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi  
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir  
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0208-raqam bilan 2019-yil 10-iyunda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAYATI:  
Dilshod KENJAYEV,  
Alisher SA'DULLAYEV,  
Murtazo SULTONOV,  
Feruza JALILOVA,  
Ashurali JO'RAYEV,  
Feruz MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir  
Axtamqul  
KARIMOV  
Rassom  
Feruzbek  
KAMOL o'g'li  
Sahifalovchi-dizayner  
Shaxobiddin  
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosma-xonasida chop etildi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga bosmaxona mas'ul.  
Manzilimiz va bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011.  
Obuna indeksi: 198.  
[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)  
e-mail: [tongyulduzi1929@umail.uz](mailto:tongyulduzi1929@umail.uz)  
telegram: [t.me/tongyulduz](https://t.me/tongyulduz)  
Adadi – 2013  
Buyurtma – V 4503

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
Bahosi kelishilgan narxda.  
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.  
Topshirish vaqti – 18:00  
Topshirildi – 18:00  
Tel./faks: (99871) 244-63-08